



(ROEMERIA GIBRIDA) O'SIMLIGINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

Jumaboyeva Feruzabonu Ravshanbek qizi

Farg'ona davlat universiteti, biologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Roemeria gybrida ko'knorguldoshlar ya'ni Papaveraceae Juss oilasiga mansub o'zida alkaloidlarni saqlovchi, hushmanzara binafsha rang holda gullaydigan o'simlik. Ryomeriyani 31 dan ortiq turi topilgan, ularni 13 turiga nom berilgan, qolganlari tafsiflanish jarayonida, shundan 2 turi chuqur o'rganilgan.

- | | |
|---------------------------------|----------------------------------|
| 1. <i>Roemeria argemonoides</i> | 8. <i>Roemeria procumbens</i> |
| 2. <i>Roemeria bivalvis</i> | 9. <i>Roemeria refracta</i> |
| 3. <i>Roemeria caria</i> | 10. <i>Roemeria rhoeadiflora</i> |
| 4. <i>Roemeria gybrida</i> | 11. <i>Roemeria schimperi</i> |
| 5. <i>Roemeria latiloba</i> | 12. <i>Roemeria simplex</i> |
| 6. <i>Roemeria makrostigma</i> | 13. <i>Roemeria vermiculata</i> |
| 7. <i>Roemeria pinnatifida</i> | |

Roemeria gybrida Roemeria lar turkumiga mansub bir yillik begona, efemer o't o'simlikdir. O'zbekchada duragay degan ma'noni beradi. Uning lotincha nomini nemis botanigi logann Yakob Royemer (1763-1819) qo'ygan. Roemeria gybrida ning ilmiy nomlarini sinonimlari bilan ilmiy manbalarda turlicha nomlanadi.

Masalan:

1. *Roemeria gybrida .dodecandra* (Forssk) Maire.
2. *Roemeria dodecandra* Forssk Stapf.
3. *Roemeria orientalis*.Boiss. (sharq qizg'aldog'i)
4. *Chelidonium dodecandrum* Forssk
5. *Clauceum integrifolirium*.A.D.Li.

Roemeria gybrida (sharq qizg'aldog'i) ko'p o'rganilgan, kam uchraydigan o'ziga xos tur hisoblanadi. Ryomeriyalarni barcha turlari Turkiyada ko'proq uchraydi. Bundan tashqari tabiiy sharoitda O'rta er dengizi mintaqalarida, Qrim, Kavkaz, Eron va Markaziy Osiyoning Janubiy hududlarida ko'p tarqalgan. Ryomeriya - binafsha gulli ko'knordan farq qiladi. Uning barglari odatda ikki karra patsimon, chuqur qirzilgan, tuklar bilan qoplangan. Sharq qizg'aldog'i tojibargi quyuq binafsha rangli, pastida dog'i yo'q, bo'yi 5-50 sm oralig'ida o'zgarib turadigan o'simlik. Ildizi tik va turg'un holda, o'sadigan joyiga qarab, ba'zi toshloq joylarda ildizi tarvaqaylagan shaklda bo'ladi. Kurtaklari 8-13mm uzunlikda, gullarini uzunligi 2-10sm, urug'ining uzunligi 1mm kulrang rangda buyrak shaklida bo'ladi. Ko'sakchasi silindrsimon, to'mtoq tuzilishli bo'ladi.

Dorivorlik xususiyatlari jihatidan juda qimmatli shifobaxsh xususiyatlarga ega, terapevtik maqsadlarda bu o'simlikning barglari va ildizlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday qimmatbaho shifobaxsh xususiyatlarning mavjudligi ushbu o'simlik



tarkibida juda ko'p remeridin va protopin alkaloidlari, shuningdek boshqa foydali moddalar mavjudligi bilan izohlanadi. Halq tabobatida bu o'simlikning barglari va ildizlari, teri toshmalari, urolitiyozli yaralarda, furunkullar va karbunkullarda tavsiya qilinadi. Ryomeriya gibrida kuchsiz narkologik va baktoreologik ta'sirga ega. Buyrak tosh kasalligida tosh tushiruvchi, diareya uchun immun quvvatlovchi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida xalq tabobatida barglarining damlamasi qo'llaniladi. Ryomeriya gibrida tarkibida 0,8 % atrofida alkaloid saqlaydi. Umuman olganda tarkibida 1-2 % alkaloid bo'lgan o'simliklar alkaloidlarga boy o'simlik hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Y.Yunusov. Alkaloidi. Toshkent, Fan,1974, s.146
2. A.A. Ibragimov, V.U. Xodjaev, O.M. Nazarov. Bioorganik kimyo. Toshkent, Fan va texnologiyalar markazi.2010.
3. Ebrahimi, S.N., Bagheri-Zomorodi, Z., Shakeri, A., Iranshahy, M., Masullo, M., Piachente, S.Iranshahi, M. The absolute configuration and cytotoxic properties of roehybridine β -N-oxide (2016) Natural Product Communications, 11 (12), pp. 1813-1816.
4. Ravshanovich O. I. et al. SACHRATI (CICHORIUM INTYBUS) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI //Scientific Impulse. – 2024. – T. 2. – №. 21. – C. 176-179.

